

**Yer qa'ri bo'yicha geologik
materiallarning loyiha-smeta
hujjatlarning davlat ekspertizasi
xulosasini berish bo'yicha
USLUBIY QO'LLANMA**

TOSHKENT-2025

Yer qa'ri bo'yicha geologik materiallarning loyiha-smeta hujjatlarining davlat ekspertizasi xulosasini berish bo'yicha uslubiy qo'llanma.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. 19 bet.

Mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasida yer qa'ri bo'yicha geologik materiallarning loyiha-smeta hujjatlarining davlat ekspertizasi xulosasini berish tartibini belgilab beradi.

Mazkur uslubiy qo'llanma Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi tashkilotlar, geologiya-qidiruv ekspeditsiyalari, yer qa'ridan foydalanuvchi korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari hamda soha mutaxassislari uchun mo'ljallangan bo'lib, yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish va kadastr ma'lumotlarini ishonchli, to'liq va samarali yuritishda amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

MUNDARIJA:

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR.....	4
UMUMIY QOIDALAR	5
EKSPERT XULOSASINI BERISH TARTIBI	5
EKSPERT XULOSASINI BERISH TALABLARI VA SHARTLARI.	5

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

"O'zbekiston Respublikasining Yer qa'ri to'g'risida"gi Qonuni	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi 92-son "Geologiya-razvedka ishlarini tashkil etish va olib borish tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-martdagi 133-son "Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnomalar berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 26-iyuldagi 467-sonli "Yer qa'ri davlat fondi ma'lumotlarini yuritish tartibini takomillashtirish to'g'risida " gi qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda yer qa'ridan oqilona foydalanish, geologik resurslarni boshqarishning zamonaviy tizimini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish jarayonlarini standartlashtirish, mavjud konlar va istiqbolli hududlar bo'yicha ma'lumotlarning to'liqligini ta'minlash hamda davlat kadastrlarini raqamlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Geologik tadqiqotlar natijasida shakllanadigan ma'lumotlarning davlat hisobiga olingan holatda yuritilishi konchilik sanoatining barqaror rivojlanishi, investitsiya loyihalarini samarali rejalashtirish, yer qa'ridagi resurslar holatini aniq aks ettirish hamda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shuningdek, yer qa'ri davlat fondi kadastrining to'liq va muntazam yuritilishi davlat boshqaruvi organlariga strategik qarorlar qabul qilishda zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur uslubiy qo'llanmaning maqsadi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlash va keyinchalik Davlat geologiya fondidan ro'yxatdan o'tkazish uchun ekspert xulosasini berish bilan bog'liq jarayonlar va tartiblarni sodda va ravon tilda tushuntirishni o'z ichiga olgan.

UMUMIY QOIDALAR

Mazkur uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:



ariza beruvchi — ekspert xulosasini olish uchun elektron ariza bergan yuridik shaxs;



geologik topshiriq — geologiya qidiruv ishlarini loyihalashtirish va natijalarini qabul qilish uchun asosiy hujjat hisoblanib, unda ishni tashkil qilish va rejalashtirish, foydali qazilma turi, hududning nomi va joylashgan joyi, ishning nomi, geologik topshiriqlar uchun asos, ishning maqsadi, hududning chegaralari, asosiy prognoz parametrlari, geologik vazifalarning ketma-ketligi va ularni hal qilishning asosiy usullari, kutilayotgan natijalar va ishning bajarilish muddatlari ko'rsatiladi;



texnik topshiriq — buyurtmachi yoki investor tomonidan pudratchiga muhandislik-geologik tadqiqotlar o'tkazish uchun beriladigan hujjat bo'lib, turli xildagi uchastkalarda foydali qazilmalarni qidirish, loyihani boshlash uchun ishchi hujjatlar loyihasini yaratish va rasmiylashtirish.

Ekspert xulosasi



Ekspert xulosasi O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "Yer qa'ridan foydalanish markazi" davlat muassasasi (keyingi o'rinlarda — Yer qa'ridan foydalanish markazi) tomonidan **"Litsenziya" axborot tizimi** yoki **YIDXP** orqali beriladi.



Ekspert xulosasining amal qilish muddati geologik yoki texnik topshiriqqa muvofiq tuzilgan loyihada ko'rsatilgan **davr uchun** beriladi.

EKSPERT XULOSASINI BERISH TARTIBI

Ekspert xulosasini olish uchun ariza beruvchi Yer qa'ridan foydalanish markaziga "Litsenziya" axborot tizimi yoki YIDXP orqali loyiha-smeta hujjatlarining elektron shaklini geologik ekspertiza tekshiruvidan o'tkazish uchun taqdim etadi.

Mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish va qayta to'ldirish davlat dasturlari doirasida geologik loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha ekspert xulosasini olish uchun Yer qa'ridan foydalanish markaziga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qiladi.

Geologiya qidiruv ishlari va uglevodorod xom ashyo uchun neft quduqlarini burg'ilash loyihasi va smetasi hamda ilmiy-tadqiqot, tajriba-metodik va tajriba-konstruktor ishlari dasturlari taqdim etiladi.

Loyiha-smeta hujjatlari ariza beruvchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Loyihaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

-  tasdiqlangan geologik yoki texnik topshiriq;
-  korxona rahbari tomonidan tasdiqlangan korxona ilmiy kengashining bayonnomasi;
-  loyihaning "Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi choralari bo'limlari";
-  grafik ilovalar.

Smetaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

-  xodimlarning ish haqi stavkasi bo'yicha sarflarning to'liq shakli ma'lumotnomasi;
-  transport xarajatlari va dala ishlari xarajatlari to'g'risida ma'lumotnoma;
-  xarajatlar davri koeffitsiyenti va standart foyda (10 foizi);
-  boshqa ishlab chiqarish xarajatlari koeffitsiyenti;
-  joriy yil uchun geologiya qidiruv ishlari dasturi.

Yer qa'ridan foydalanish markaziga yuridik shaxslar tomonidan taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlariga ekspert xulosasini berish **shartnoma asosida** amalga oshiriladi.



Bunda bitta loyihaning ekspertizasi uchun xarajatlar loyihaning bir foizgacha bo'lgan qiymatida hisoblanadi. Ushbu qiymat shartnoma asosida to'liq Yer qa'ridan foydalanish markazining hisobvaraq'iga o'tkaziladi.

Ekspertiza xulosasini berishdan tushgan mablag'lar Yer qa'ridan foydalanish markazining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ishchi-xodimlarini rag'batlantirish va ularning malakasini oshirishga maqsadli yo'naltiriladi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun bazaviy hisoblash miqdorining **30 foizi miqdorida** yig'im undiriladi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun undirilgan yig'im summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:



a) "Litsenziya" axborot tizimi orqali murojaat etilganda:

20 foizi – Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasi shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkaziladi;

0,5 foizi – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga;

qolgan mablag'lar to'liq ruxsatnoma beruvchi organning budjetdan tashqari jamg'armasiga o'tkaziladi;



b) YIDXP orqali murojaat etilganda:

10 foizi – Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasi shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkaziladi;

11,25 foizi – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga o'tkaziladi;

qolgan mablag'lar to'liq ruxsatnoma beruvchi organning budjetdan tashqari jamg'armasiga o'tkaziladi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun yig'im to'langanligini tasdiqlash Yagona billing tizimi orqali amalga oshiriladi.

Yer qa'ridan foydalanish markazi yetti kun muddatda shartnomani ariza beruvchiga "Litsenziya" axborot tizimi orqali taqdim etadi.

❖ Ariza beruvchi o'n kun muddatda shartnomada ko'rsatilgan pul mablag'ini Yer qa'ridan foydalanish markazining hisobvarag'iga o'tkazadi va o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatni **"Litsenziya" axborot tizimi orqali** taqdim qiladi.



Yer qa'ridan foydalanish markazi besh kun muddatda loyiha-smeta hujjatlari loyihasini Kon-geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasiga kelishish uchun "Litsenziya" axborot tizimi orqali yuboradi.

❖ **Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi** uch kun muddatda loyiha-smeta hujjatlari loyihasini ko'rib chiqadi va kelishilgan loyihani "Litsenziya" axborot tizimi orqali Yer qa'ridan foydalanish markaziga yuboradi.

❖ Yer qa'ridan foydalanish markazi besh kun muddatda loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqadi va natijasi bo'yicha ariza beruvchiga ekspert xulosasini "Litsenziya" axborot tizimi yoki YIDXP orqali yuboradi.

❖ Ekspertizaga yuborilgan loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar bo'lgan taqdirda, bu haqida ariza beruvchiga

“Litsenziya” axborot tizimi yoki YIDXP orqali xabar beriladi. Kamchiliklar bartaraf etilgandan keyin loyiha-smeta hujjatlari Yer qa’ridan foydalanish markaziga “Litsenziya” axborot tizimi yoki

- ◆◆ YIDXP orqali taqdim etiladi. Loyiha ekspertiza qilish uchun qabul qilingan sana loyiha-smeta hujjatlari qabul qilingan sana hisoblanadi.

Loyiha-smeta hujjatlari ko’rib chiqish jarayonida aniqlangan va yetishmayotgan ma’lumotlar ko’rsatilgan holda boshqa hujjatlar bilan 10 kun ichida “Litsenziya” axborot tizimi yoki YIDXP orqali Yer qa’ridan foydalanish markaziga taqdim etilishi kerak.

- ◆◆ Hududning loyiha-smeta hujjatlarini ko’rib chiqish muddati uning murakkabligi va hajmiga qarab belgilanadi, biroq ushbu muddat loyiha-smeta hujjatlari olingan kundan boshlab 30 kundan oshmasligi kerak.

- ◆◆ Loyiha-smeta hujjatlarini ko’rib chiqish natijalari asosida ekspert xulosasi rasmiylashtiriladi. Ekspert xulosasi ariza beruvchiga “Litsenziya” axborot tizimi yoki YIDXP orqali yuboriladi.

- ◆◆ Agar taqdim etilgan loyiha-smeta hujjatlari Yer qa’ridan foydalanish markazi tomonidan tasdiqlangan yo’riqnoma va smeta normalar to’plamlariga muvofiq tayyorlanmagan, hujjatlarning sifati qoniqarsiz bo’lsa, loyiha-smeta hujjatlari qayta ko’rib chiqish uchun ariza beruvchiga dastlabki ekspert xulosasi asosida qaytariladi.

- ◆◆ Dastlabki ekspert xulosasida kamchiliklarning mohiyati ko’rsatiladi. Ekspertiza xulosalaridan kelib chiqib ariza beruvchi zarur o’zgartirish va qo’shimchalarni kiritadi va loyiha-smeta hujjatlarini qayta ko’rib chiqish uchun “Litsenziya” axborot tizimi

- ◆◆ orqali taqdim etadi.

Yer qa'ridan foydalanish markazi 15 kun ichida loyiha-smeta hujjatlariga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni ko'rib chiqadi, yakuniy ekspert xulosasini tuzadi va ushbu loyiha ariza beruvchining o'zlarining Ilmiy-texnik kengashi bo'limida muhokama qilinib tasdiqlanadi.

◆ Ariza beruvchining loyiha-smeta hujjatlari ekspertizasi natijalaridan kelib chiqadigan bahsli masalalar Yer qa'ridan foydalanish markazining tegishli bo'limlarida ko'rib chiqiladi.

◆ Bahsli masalalarni ko'rib chiqish natijalari Yer qa'ridan foydalanish markazining ilmiy-texnik kengashi bo'limining bayonnomalari bilan rasmiylashtiriladi. Yer qa'ridan foydalanish markazi ilmiy-texnik kengashi bo'limi qarorining ijrosi mualliflar va ekspertlar uchun majburiydir.

◆ Uchinchi tomon tashkilotlarining loyiha-smeta hujjatlari ekspertizasi natijalaridan kelib chiqadigan bahsli masalalar Yer qa'ridan foydalanish markazi ilmiy-texnik kengashining qo'shma majlisida ko'rib chiqiladi. Qo'shma yig'ilish qarori ijrosi har ikki tomon uchun ham majburiydir.

◆ Yer qa'ridan foydalanish markazi ilmiy-texnik kengashi qo'shma majlisining qarori hisobga olingan holda ekspert xulosasi qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

EKSPERT XULOSASINI BERISH TALABLARI VA SHARTLARI



Loyiha-smeta hujjatlari loyihalari Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Geologiya-qidiruv ishlariga loyiha va smetalar tuzish bo'yicha yo'riqnoma, Geologiya qidiruv uchun smeta normalari to'plamlari va boshqa normativ-texnik hujjatlarga muvofiq tuzilishi kerak.



Neft va gaz quduqlari qurilishining loyiha-smeta hujjatlari Energetika vazirligi va "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan tasdiqlanadigan normativ-texnik hujjatlarga muvofiq tuzilishi kerak.



Qidiruv xarajatlarini hisoblash Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan loyiha-smeta hujjatlari Qidiruv xarajatlarini amaldagi narxlarda hisoblash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma, Qidiruv xarajatlarini joriy narxlarda hisoblash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma va boshqa normativ-texnik hujjatlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.



Loyiha-smeta hujjatlarining smeta qiymati Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan smeta narxlari to'plamida nazarda tutilgan Geologiya qidiruv ishlari narxlarini joriy narxlarda hisoblashning avtomatlashtirilgan dasturlari

metodik qo'llanmasiga va boshqa normativ-texnik hujjatlarga asosan hisoblanadi.



Smeta narxlarining to'plamida ko'zda tutilmagan ishlarning qiymatlari smeta va moliyaviy hisob-kitob bo'yicha hisoblanadi.



Agar neft quduqlarini qurish loyihalari uchun smeta hujjatlarini ishlab chiqishga hojat bo'lmasa (qaror buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadi), ish loyihasini ekspertiza o'tkazish uchun smeta hisobisiz taqdim etishga ruxsat beriladi.



Yer qa'ridan foydalanish markazi tomonidan tasdiqlangan yo'riqnoma va smeta normalar to'plamlari Yer qa'ridan foydalanish markazining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.



Loyiha-smeta hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan hudud uchun tasdiqlangan geologik, texnik topshiriqqa, tadqiqotning mukammalligiga (topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha turdagi ishlar kiritilishi), boshqa yo'riqnoma va normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash hamda ilgari bajarilgan ishlar takrorlanishining oldini olish uchun ko'rib chiqiladi.

ILOVALAR

Geologik loyihalarni ekspertizadan o'tkazish SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	Yer qa'ridan foydalanish markaziga "Litsenziya" axborot tizimi orqali loyiha-smeta hujjatlarini geologik ekspertiza tekshiruvidan o'tkazish uchun taqdim etadi.	Xohishga ko'ra
2-bosqich	Yer qa'ridan foydalanish markazi	Shartnomani ariza beruvchiga "Litsenziya" axborot tizimi yoki YIDXP orqali taqdim etadi.	7 kun
3-bosqich	Ariza beruvchi	Shartnomada ko'rsatilgan pul mablag'ini Yer qa'ridan foydalanish markazining hisob varag'iga o'tkazadi va o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatni "Litsenziya" axborot tizimi yoki YIDXP orqali ma'lum qiladi.	10 kun
4-bosqich	Yer qa'ridan foydalanish markazi	Geologik qidiruv ishlari loyihasini Inspeksiya kelishish uchun "Litsenziya" axborot tizimi yoki YIDXP orqali yuboradi.	5 kun
5-bosqich	Inspeksiya	Geologik qidiruv ishlari loyihasini ko'rib chiqadi va kelishilgan loyihani "Litsenziya" axborot tizimi yoki YIDXP orqali Yer qa'ridan foydalanish markaziga yuboradi.	3 kun
6-bosqich	Yer qa'ridan foydalanish markazi	Geologik qidiruv ishlari loyiha-smetasini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ariza beruvchiga ekspert xulosasini "Litsenziya" axborot tizimi yoki YIDXP orqali yuboradi.	5 kun

[illegible]